

UDK 004.093

## SINFLAR XATOLI AJRALGANDA TIMSOLLARNI BELGILANGAN XATOLIK VA ISHONCHLILIK BILAN TANUVCHI BELGILARNI TANLASH

*Bekmuratov Q.A.<sup>1</sup>, Bekmuratov D. Q.<sup>2</sup>*

<sup>1</sup> Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Samarqand filiali, Samarqand, O‘zbekiston

<sup>2</sup> Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari  
instituti, Toshkent, O‘zbekiston  
bekmurodov1958@mail.ru

**Annotatsiya.** *Maqolada yuqori chekli o‘lchamli belgilar fazosida o‘quv tanlanma sinflari bir-biridan xatoli ajralganda timsollarni belgilangan xatolik va ishonchlilik bilan tanib olish masalasini yechish qaralgan. O‘quv tanlanma har bir sinfini boshqa sinflardan xatoli ajratishda xatolik chastotasi, timsollarni tanib olishdagi xatolik ehtimoli va uning ishonchlilik qiymatlari hamda o‘quv tanlanmadagi timsollar, belgilar va sinflar soni kabi parametrlarni inobatga olib, sinfga xos belgilar fazosining yuqori chekli o‘lchamini topish uslubiyoti keltirilgan. Yuqori chekli o‘lchamli belgilar fazosini sinfga xos alohida belgilardan shakllantirish uchun har bir tanlab olinadigan alohida belgilarning minimal va haqiqiy ajratish kuchlari aniqlangan. Minimal va haqiqiy ajratish kuchlarini hisobga olgan holda birinchi, ikkinchi va uchinchi tipli alohida belgilarning har bir tipidan ularning yuqori chekli o‘lchamli fazosini shakllantirish protseduralari taklif qilingan. Taklif qilingan uslubiyot asosida algoritm va dasturiy ta‘minot ishlab chiqilgan. EHMda hisoblash tajribalari o‘tkazilgan hamda natijalar hal qiluvchi qoidalar ko‘rinishida keltirilgan bo‘lib, ulardan timsollarni tanishda foydalanilgan. Shuningdek, o‘tkazilgan izlanishlarning xulosalari keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *sun‘iy intellekt, timsollarni tanuvchi tizim, timsollarni tanib olish, o‘quv tanlanma, nazorat tanlanma, sinf, timsol, belgi, sinfga xos alohida belgi, alohida belgilar fazosi, bo‘sga, hal qiluvchi qoida, ajtaish kuchi, minimal ajratish kuchi, haqiqiy ajratish kuchi, xatolik chastotasi, xatolik ehtimoli, ishonchlilik.*

### I. KIRISH

Hozirgi kunda sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalariga asoslangan tizimlarni ishlab chiqishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu inson faoliyatining turli sohalarida uning yuqori amaliy ahamiyati bilan bog‘liq. SI sohasining asosiy yo‘nalishlaridan biri - bu timsollarni tanib olish yo‘nalishi bo‘lib, bunda timsollarni samarali va tezkor tanib olish algoritmlariga asoslangan intellektual tizimlarini yaratishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda

timsollarni tanib olish (TTO) usullari va algoritmlari tabiat va jamiyatda uchraydigan murakkab va qiyin formalashtiriladigan masalalarni yechishda qo‘llanilmoqda. Timsollarni tanuvchi tizim(TTO)larni yaratishda ularning yangi timsol(obyekt, signal, hodisa, jarayon)larni tanib olishda yuqori sifat va ishonchlilik ko‘rsatgichga erishishi muhim faktorlardan biri hisoblanadi. Yaratilayotgan TTONing sifati va ishonchliligi oldindan berilgan o‘quv tanlanma(O‘T)dagi timsollar va belgilar soniga bevosita bog‘liq. Shuning uchun O‘Tdagi timsollar va belgilar sonini

inobatga olib, TTOda turli usullar va algoritmlardan foydalaniladi [1-9, 13, 14, 16, 18].

Timsollarni tanuvchi tizim (TTT)ning TTOda yuqori sifat va ishonchlilikni ta'minlashi uchun timsollarning qanday belgilari bilan ishlashini oldindan bilishi va o'qitish ketma-ketligida timsollarni belgilari to'liq o'z aksini topishi talab etiladi. Shuning uchun TTTning TTOda nafaqat belgilangan sifatga, balki unga erishishning ishonchliligiga ham ega bo'lishi talab qilinadi.

TTO masalasida ikkita muammo mavjud. Birinchisi – O'Tdagi timsollar dastlabki belgilaridan foydalanib TTO bo'lsa, ikkinchisi – dastlabki belgilar orasidan aniq mezonlar asosida belgilangan sinfga xos belgilarni tanlash va ular yordamida TTO masalasi hisoblanadi. Ayni paytda ushbu muammolarni bartaraf etishga katta e'tibor berilmoqda, biroq hozirgi kunga qadar ushbu muammolarni to'liq bartaraf etadigan rasmiy uslublar ishlab chiqilmagan. Timsollar belgilarini aniqlashda oldindan berilgan bilimlar, sezgi, nazorat va xatolik usullari hamda tajribadan foydalaniladi. Shundan kelib chiqqan holda, TTO masalalarini yechishda qo'llanilishiga ko'ra "timsol-belgi" tushunchasidan "sinf-belgi" tushunchasi aniqlanadi va uni aniqlaydigan usul va algoritmlar bir-biridan yondashuvlari hamda belgilarni aniqlash mezonlari bilan farq qiladi [2-8, 11, 12, 15].

[6, 7, 18] ishlardagi algoritmlar O'Tdagi belgilar va belgilar birikmasi asosida nazorat tanlanma(NT)dagi TTOga asoslangan.

[2, 16] manbalarda TTOda nazariy natijalar olingan bo'lib, ular O'Tdagi belgilardan hosil qilingan hal qiluvchi qoida(HQQ)lar sinflarni bir-biridan xatosiz yoki xatoli ajratganda HQQlarning yangi TTOdagi hatolik ehtimoli va uning ishonchliligi HQQlarning

murakkabligi (chiziqli, bo'lakli-chiziqli) va timsollar soniga bog'liqligi baholangan.

[3, 4, 17] ishlarda chekli qisqartirish usuli (ChQU) keltirilgan bo'lib, unda O'T timsollari binar belgilar bilan tavsiflanganda sinflarni bir-biridan xatosiz ajratishni ta'minlovchi sinfga xos binar belgilar aniqlangan va ular asosida HQQlar hosil qilingan. Ushbu HQQlar asosida yangi TTOdagi hatolik ehtimoli va uning ishonchliligi baholangan.

[14] maqola mualliflari tomonidan Fisher mezoni asosida informativ belgilar fazosi(BF)ni hosil qilish algoritmi ishlab chiqilgan. Ushbu mezon asosida informativ belgilarni tanlab olishni optimallashtirish masalasi yechilgan. Informativ BFda Fisher funksionali xossalari asosida yaqinlashish funksiyasi qurilgan.

[15] ishda katta o'lchamli BFda TTOga mo'ljallangan modelni qurish masalasi qaralgan. Ko'pqatlamli yaqinlashish funksiyasini qurish asosida TTO operatorlarni qurishning yangi yondashuvi taklif qilingan. O'zaro bog'liq timsollarning bog'liq bo'lmagan to'plamlarini shakllantirish va funksiyalar jufti vakillari naborini tanlab olishni baholi hisoblash asosida TTO modeli ishlab chiqilgan. Baholash asosida TTOda ishlatiladigan operatorlarning ishonchliligini oshirish muammolari bilan bog'liq yangi echimlar hosil qilingan.

[13] maqolada TTOda qo'llaniladigan BFni shakllantirish masalasi taklif qilingan. Timsollarni o'rganish jarayonida avval timsollarning dastlabki belgilari tanlab olinadi va ulardan informativ belgilar tizimostilari shakllantiriladi.

[1, 11] maqolalarda O'Tdagi timsollar binar belgilar bilan tavsiflanganda va sinflar bir-biridan xatosiz ajralganda alohida belgilar hamda belgilar kombi-

natsiyasidan tayanch to'plamlar tizimini shakllantirish masalasi qaralgan. Binar BFning chekli o'lchami aniqlangan va uning asosida belgilar kombinatsiyasidan tayanch to'plamlar tizimi shakllantirilgan. Aniqlangan BFning chekli o'lchami asosida belgilar kombinatsiyasining hosil qilinishi o'z navbatida belgilar kombinatsiyasi naboridan tashkil topgan tayanch to'plamlar tizimi hajmining va HQQlar sonining keskin kamayishiga olib kelgan. Bu esa yangi TTODA belgilangan sifat va ishonchlikni ta'minlashga imkoniyat yaratgan.

Yuqorida keltirilgan ishlardan farqli ravishda, ushbu maqolada O'Tdagi timsollarning belgilari turli shkalada tavsiflanganda va O'T sinflari bir-biridan xatosiz ajralmaganda, ularni xatoli ajratish masalasi qo'yiladi va yechiladi. Buning uchun dastlab O'T har bir sinfini boshqa sinflardan xatoli ajratishda xatolik chastotasi, yangi TTOdagi xatolik ehtimoli va uning ishonchlik qiymatlari hamda O'Tdagi timsollar, belgilar va sinflar soni kabi parametrlarni inobatga olib, BF o'lchamini yuqori chekli qiymati aniqlanadi. Undan keyin O'T timsollarini belgilar qiymatlari normallashtiriladi, har bir sinf timsollarining normallashtirilgan belgilari uchun bo'sag'a qiymatlari topiladi, ular asosida belgilar binarlashtiriladi. Ushbu belgilardan maxsus qoidalar asosida har bir sinfga xos ikkinchi va uchinchi tipli alohida belgilar tanlab olinadi hamda ularning har bir tipi bo'yicha aniq mezonlar asosida chekli o'lchanli BF shakllantiriladi va ularga mos HQQlar quriladi. Ushbu HQQlar yangi TTODA qo'llaniladi.

## II. MASALANING QO'YILISHI

O'Tdagi sinflarni bir-biridan ajratuvchi belgilarni tanlash natijasida hosil

qilinadigan HQQlar asosida TTODA hatolik ehtimoli va uning ishonchlik ko'rsatkichlarini ifodalovchi ayrim natijalar [2, 16] ishlarda keltirilgan. Ushbu natijalardan foydalanib, [3, 4, 17] maqolalarda O'T timsollari binar belgilar bilan tavsivlanganda va OT sinflari bir-biridan xatosiz ajratishda BFning chekli o'lchamli fazosini aniqlash va ushbu fazoga mos uchta tipli alohida belgilarni tanlash va ularning har bir tipi bo'yicha HQQlarni hosil qilish masalalari qaralgan va echilgan. Biroq ko'p hollarda BFning chekli o'lchamli fazosida O'T sinflarini bir-biridan xatosiz ajratishga erishib bo'lmaydi. Bunday holda O'T sinflarini bir-biridan xatoli ajratish masalasi qaraladi. Bunday masalani echishda O'Tning aniq bir sinfi timsollarini boshqa sinflar timsollaridan HQQ yordamida ajratishda yo'l qo'yiladigan xatolik chastotasi inobatga olinadi va HQQni yangi TTOdagi xatolik ehtimoli va uning ishonchligi baholanadi. Buning uchun [2, 16] ishlarda olingan natijadan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, unda agar  $m$  ta timsollardan iborat bo'lgan O'T aniq bir sinfi timsollarini boshqa sinflardagi timsollardan ajratishda HQQ  $\nu$  chastota xatolikka yo'l qo'ysa, u holda  $(1-\eta)$  ishonchlik bilan ta'kidlash mumkinki, ushbu HQQ yordamida yangi TTOdagi xatolik ehtimoli  $(\nu+\varepsilon)$  dan oshmaydi deb e'tirof etilgan, bu yerda

$$\varepsilon = \sqrt{\frac{\ln N - \ln \eta}{2m}}. \quad (1)$$

bunda  $N$  - HQQlar to'plami,  $\eta$  - ishonchlik,  $m$  - O'Tdagi timsollar soni.

$T_{nml}$  ( $n$  - belgilar soni,  $m$  - timsollar soni,  $l$  - sinflar soni) O'T va  $T_{nml}^*$  ( $m^*$  - timsollar soni) nazorat tanlanma (NT)

mos ravishda (2) va (3) ko'rinishlarda berilgan bo'lsin [1, 6, 7, 11]:

$$T_{nml} = \bigcup_{j=1}^l K_j : \begin{cases} X_1 = (x_{11}, x_{12}, \dots, x_{1n}) \\ X_2 = (x_{21}, x_{22}, \dots, x_{2n}) \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ X_{m_j} = (x_{m_j1}, x_{m_j2}, \dots, x_{m_jn}) \end{cases}, \quad (2)$$

$$T_{nm}^* : \begin{cases} X_1^* = (x_{11}, x_{12}, \dots, x_{1n}) \\ X_2^* = (x_{21}, x_{22}, \dots, x_{2n}) \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ X_{m^*}^* = (x_{m^*1}, x_{m^*2}, \dots, x_{m^*n}) \end{cases}. \quad (3)$$

bu yerda:  $K_1, K_2, \dots, K_l$  - O'T sinflari;  
 $X_1, X_2, \dots, X_{m_j}$  -  $K_j$  sinf timsollari;  
 $X_1^*, X_2^*, \dots, X_{m^*}^*$  - NT timsollari;  
 $(x_{u1}, x_{u2}, \dots, x_{un})$  -  $X_u$  va  $X_u^* (u = \overline{1, m})$   
 timsollar belgilari bo'lib, ularning qiymatlari turli shkalada, ya'ni mantiqli, determinalli, ehtimolli, strukturali, nominalli va tartibli bo'lishi mumkin.

Xususiyl holda  $T_{nml}$  O'Tdan  $K_q$  sinf sifatida  $K_q = \forall K_j$  va  $K_p (q \neq p)$  sinf sifatida  $K_p = T_{nml} \setminus K_q$  belgilanadi, bunda  $K_q \cup K_p = T_{nml} (q \neq p)$ .

#### **Talab qilinadi:**

- O'T timsollarining belgilar qiymatlarini normallashtirish, har bir sinf uchun belgilarning bo'sag'a qiymatlarini aniqlash va ular asosida turli shkalada tavsiflangan belgilarni binarlashtirish;

- O'T sinflarini xatoli ajratishda (1) formuladan foydalanib BF o'lchamining  $n_0$  chekli qiymatini  $n_0 = f(\nu, \varepsilon, \eta, n, m, l)$  bog'liqlik asosida aniqlash;

- (2) ko'rinishda berilgan O'Tdagi timsollarning binarlashtirilgan belgilaridan sinfga xos alohida belgi(AB)larni tanlash va ulardan  $n_0$  o'lchamli BFni shakllantirish;

- shakllantirilgan  $n_0$  o'lchamli BFga mos HQQlarni hosil qilish;

-  $K_q$  sinf  $K_p$  sinfdan  $\nu$  xatolik bilan ajralganda HQQlar asosida (3) ko'rinishdagi NT timsollarini belgilangan  $(\nu + \varepsilon)$  va uning  $(1 - \eta)$  ishonchlilikini ta'minlagan holda tanib olish.

(1) formula va masalaning qo'yilishini inobatga olib, quyidagi hulosaga kelish mumkin, ya'ni TTOda belgilangan xatolik va ishonchlilikka erishish uchun o'lchami yuqori chekli  $n_0$  qiymatga ega bo'lgan BFni aniqlash va  $R(X)$  HQQlar to'plamini qisqartirish zarur. Bu esa  $n_0$  o'lchamli BFni to'ldirish uchun O'Tdagi timsollar belgilarini ketma-ket tekshirish jarayonida ulardan aniq mezon asosida har bir sinfga xos bo'lgan ABlarni tanlash imkonini beradi. Bu jarayon  $n_0$  o'lchamli BF to'ldirilguncha davom ettiriladi va timsollarni barcha belgilarini tekshirishni talab qilmaydi. Bu esa algoritmlarni ishlash tezligini oshiradi va kam vaqt sarflab masalani yechimini topish imkonini beradi.

### **III. MASALANI YECHISH USLUBI**

#### **Belgilar qiymatini normallashtirish.**

Aytaylik,  $T_{nml}$  O'T (2) ko'rinishda va uning  $X_u (u = \overline{1, m})$  timsollarining  $x_{ui} (u = \overline{1, m})$  belgilari qiymatlari turli shkalalarda berilgan bo'lsin. U holda belgilarning qiymatlarini bir xil shkalaga keltirish uchun, ular (4) formula asosida normallashtiriladi [1, 11]:

$$x_{ui}^* = \frac{x_{ui}}{\hat{x}_i}, \quad (i = \overline{1, n}; u = \overline{1, m}), \quad (4)$$

bu yerda  $\hat{x}_i = \max_u(x_{ui}), i = \overline{1, n}, u = \overline{1, m}$ .

**Bo'sag'a qiymatini aniqlash.** TTO masalasini echishda eng muhim parametrlaridan biri – bu  $\delta_i$  bo'sag'a qiymatini aniqlash hisoblanadi. Bu qiymatlar guruhi umumiy holda timsollarni mos belgilarining yaqin yoki yaqin

emasligini aniqlash uchun o'ratilgan chegaraviy qiymatlarni ifodalaydi. Agar berilgan timsolni tavsiflovchi belgilar soni  $n$  ta bo'lsa, u holda har bir  $x_i (i = \overline{1, n})$  uchun alohida bo'sag'a qiymati beriladi va ular  $\delta_i (i = \overline{1, n})$  ko'rinishda belgilanadi.

Agar  $x_i (i = \overline{1, n})$  belgilarning qiymatlari turli shkalalardagi qiymatlardan iborat bo'lsa va  $\delta_i (i = \overline{1, n})$  bo'sag'alar soha mutaxassisi (ekspert) tomonidan berilmasa, u holda (4) formula yordamida qiymatlari normallashtirgan belgilarni binarlashtirishda har bir sinf uchun  $\delta_i (i = \overline{1, n})$  bo'sag'alar qiymatlari O'Tni o'qitish orqali quyidagicha aniqlanadi.

Har bir  $K_q \in T_{nml}$  sinf sinf timsollarining  $i$ -belgisi bo'yicha minimum va maksimum oraliqlari aniqlab olinadi va ularning o'rtacha qiymatidan foydalaniladi. Bu holda  $K_q$  sinf uchun har bir belgining minimum va maksimum qiymatlari quyidagicha aniqlanadi [1, 11]:

$$\begin{aligned} \check{\delta}_i^q &= \min_i(x_{ji}^q), q = \overline{1, l}, \\ i &= \overline{1, n}, j = \overline{1, m_q}, \end{aligned} \quad (5)$$

$$\begin{aligned} \widehat{\delta}_i^q &= \max_i(x_{ji}^q), q = \overline{1, l}, \\ i &= \overline{1, n}, j = \overline{1, m_q}, \end{aligned} \quad (6)$$

$$x_{ji} = \begin{cases} 1, & \text{agar } X_j \text{ timsol uchun } x_{ji} \leq \delta_i^q \text{ bo'lsa,} \\ 0, & \text{boshqa hollarda} \end{cases} \quad (q = \overline{1, l}; i = \overline{1, n}; j = \overline{1, m}) \quad (9)$$

$$x_{ji} = \begin{cases} 1, & \text{agar } X_j \text{ timsol uchun } \check{\delta}_i^q \leq \tilde{x}_{ji} \leq \widehat{\delta}_i^q \text{ bo'lsa,} \\ 0, & \text{boshqa hollarda} \end{cases} \quad (q = \overline{1, l}; i = \overline{1, n}; j = \overline{1, m}). \quad (10)$$

Ta'kidlash mumkinki, barcha keyingi hisoblashlarda normallashtirilgan belgilarning (9) yoki (10) qoida asosida binarlashtirilgan qiymatlaridan foydalaniladi.

aniqlangan  $\check{\delta}_i^q$  va  $\widehat{\delta}_i^q$  qiymatlarning o'rtachasi olinadi:

$$\delta_i^q = \frac{1}{2}(\widehat{\delta}_i^q - \check{\delta}_i^q), q = \overline{1, l}, i = \overline{1, n}, \quad (7)$$

bu yerda  $\delta_i^q$  - bo'sag'a qiymat bo'lib, u  $i$ -belgining  $K_q$  sinf bo'yicha  $\widehat{\delta}_i^q$  maksimal va  $\check{\delta}_i^q$  minimal qiymatlarining o'rtacha qiymatidan hosil qilingan.

Ko'p hollarada O'Tdagi har bir  $K_q$  sinf uchun bo'sag'alar qiymatlari sifatida  $K_q$  sinfdagi normallashtirilgan  $\tilde{x}_i$  belgining o'rtacha qiymati olinadi [1, 11]:

$$\delta_i^q = \frac{1}{m_q} \sum_{j=1}^{m_q} \tilde{x}_{ji}, q = \overline{1, l}, i = \overline{1, n}. \quad (8)$$

**Belgilarni binarlashtirish.** Agar normallashtirilgan  $\tilde{x}_i (i = \overline{1, n})$  belgilar uchun bo'sag'a qiymatlar har bir  $K_q (q = \overline{1, l})$  sinf uchun (5)-(8) formulalar asosida aniqlansa, u holda har bir  $\tilde{x}_i (i = \overline{1, n})$  belgi quyidagi qoidalardan biri yordamida binarlashtirilishi mumkin [1, 11]:

**Sinfga xos 3 ta tipdagi ABlarni aniqlash.** Faraz qilaylik,  $T_{nml}$  O'Tdagi  $K_j (j = \overline{1, l})$  sinflar ikkita  $K_q$  va  $K_p (q \neq p)$  sinflarga ajratilgan bo'lib,

ularga mos to'plamlar uchun  $V_q \cup V_p = V$  va  $V_q \cap V_p \neq \emptyset$  shart o'rinli bo'lsin. Bu yerda  $V - T_{nml}$  O'Tdagi timsollar to'plami (TT),  $V_q - K_q$  sinfdagi TT,  $V_p - K_p$  sinfdagi TT.

[1, 11] maqolalarda  $T_{nml}$  O'T sinflarini bir-biridan xatosiz hamda

$$(\forall X_u \in V_q : x_{ui} = 1) \wedge (\forall X_u \in V_p : x_{ui} = 0) = 1, \quad (11)$$

$$[(\forall X_u \in V_q : x_{ui} = 1) \wedge (\exists X_u \in V_p : x_{ui} = 1) \wedge (\exists X_u \in V_p : x_{ui} = 0)] = 1, \quad (12)$$

$$[(\exists X_u \in V_q : x_{ui} = 1) \wedge (\exists X_u \in V_p : x_{ui} = 0) \wedge (\forall X_u \in V_p : x_{ui} = 0)] = 1. \quad (13)$$

Shuningdek, binarlashtirilgan  $x_i (i = \overline{1, n})$  belgilardan (11) qoida asosida  $K_q$  sinfga xos 1-tipli  $x_{qi}^{(1)}$ , (12) qoida asosida 2-tipli  $x_{qi}^{(2)}$  va (13) qoida asosida 3-tipli  $x_{qi}^{(3)}$  ABLar tanlab olingan va ulardan mos ravishda 1-tipli  $V_q^{(1)} = x_{q1}^{(1)}, x_{q2}^{(1)}, \dots, x_{qn_1}^{(1)}$ , 2-tipli  $V_q^{(2)} = x_{q1}^{(2)}, x_{q2}^{(2)}, \dots, x_{qn_2}^{(2)}$  va 3-tipli  $V_q^{(3)} = x_{q1}^{(3)}, x_{q2}^{(3)}, \dots, x_{qn_3}^{(3)}$  AB fazosi (ABF) hosil qilingan. Hosil qilingan 3 ta tipli ABFning har biridan  $n_0$  o'lchamli 1-tipli  $V_q^{(1)} = x_{q1}^{(1)}, x_{q2}^{(1)}, \dots, x_{qn_0}^{(1)}$ , 2-tipli  $V_q^{(2)} = x_{q1}^{(2)}, x_{q2}^{(2)}, \dots, x_{qn_0}^{(2)}$  va 3-tipli  $V_q^{(3)} = x_{q1}^{(3)}, x_{q2}^{(3)}, \dots, x_{qn_0}^{(3)}$  ABFlarini shakllantirish masalasi qaralgan [1, 11].

[1, 11] ishlardan farqli ravishda, BFning  $n_0$  o'lchamini hisoblashda  $T_{nml}$  O'T uchun aniqlangan bo'sag'a qiymatlardan emas, balki  $T_{nml}$  O'Tdagi har bir  $K_q (q = \overline{1, l})$  uchun (5)-(8) formulalar asosida aniqlangan bo'sag'a qiymatlarni inobatga olib, (9) va (10) qoidalar yordamida binarlashtirilgan belgilardan iborat  $l (l \geq 2)$  ta  $T_{nml}^q$  O'Tning har birida  $K_q \in T_{nml}^q$  sinfini

xatoli ajratishda bo'sag'a qiymatlari  $T_{nml}$  O'T uchun aniqlanganda va ularni inobatga olib, binarlashtirilgan  $x_i (i = \overline{1, n})$  belgilardan aniq  $K_q$  sinfga xos 3 ta tipli ABLar quyidagi qoidalar asosida aniqlangan:

$K_p \in T_{nml}^q$  sinfdan belgilangan  $\nu$  xatolik bilan ajratish masalasi qaraladi va yechiladi.

#### **BF o'lchami $n_0$ qiymatini aniqlash.**

Aytaylik  $T_{nml}$  O'T (1) ko'rinishda berilgan va timsollarning  $x_i (i = \overline{1, n})$  belgilari qiymatlari turli shkalalardagi miqdorlardan iborat bo'lsin. U holda  $T_{nml}$  O'Tdagi har bir  $K_q (q = \overline{1, l})$  sinf timsollarining har bir  $x_i$  belgisi uchun bo'sag'a qiymatlari (5)-(8), (12) va (13) formulalar asosida aniqlanadi va ularni inobatga olib,  $x_i (i = \overline{1, n})$  belgilar (9) va (10) qoidalar asosida binarlashtiriladi. Natijada binarlashtirilgan  $l$  ta  $T_{nml}^q$  O'T hosil bo'ladi. Binarlashtirilgan  $l$  ta  $T_{nml}^q$  O'Tning har birida  $K_q \in T_{nml}^q$  sinfini  $K_p \in T_{nml}^q$  sinfdan belgilangan  $\nu$  xatolik bilan ajratish masalasini yechishda,  $m, n$  oldindan berilgan va  $\nu, \varepsilon, \eta$  belgilanganda,  $n_0 = f(\nu, \varepsilon, \eta, n, m)$  funksional bog'liqlikni inobatga olib  $n_0$  qiymatni aniqlash uchun (1) formuladan quyidagi hosil qilinadi:

$$\ln N = (\nu + \varepsilon^2) 2m + \ln \eta \quad (14)$$

(14) formulaga ko'ra, binarlashtirilgan  $l$  ta  $T_{nml}^q$  O'Tning har birida  $K_q$  sinfni  $K_p$  sinfdan xatoli ajratishni ta'minlovchi HQQni hosil qilish nafaqat  $T_{nml}^q$  O'Tdagi dastlabki belgilar soni  $n$ , balki ushbu belgilardan  $K_q$  sinfga xoslaridan shakllantiriladigan BF o'lchami  $n_0$  ga ham bog'liq, ya'ni:

$$N = e^{f(n, n_0)} \quad (n_0 \leq n). \quad (15)$$

Agar binarlashtirilgan  $l$  ta  $T_{nml}^q$  O'Tning har birida  $K_q$  sinfni  $K_p$  sinfdan xatoli ajratishni  $n_0$  o'lchamli BFda amalga oshirish talab qilinsin va bunda har bir  $T_{nml}^q$  O'Tdagi binarlashtirilgan  $x_i (i = \overline{1, n})$  belgilardan  $K_q$  sinfga xoslarini tanlab olishning tavakalligi va bog'liqmasligi e'tiborga olinsa, u holda har bir  $T_{nml}^q$  O'T uchun  $n_0$  o'lchamli BFni hosil qilishning mumkin bo'lgan barcha holatlar soni  $N$  quyidagicha aniqlanadi:

$$N \leq C_n^1 + C_n^2 + \dots + C_n^{n_0} = 2^{n_0}.$$

Agar binarlashtirilgan  $l$  ta  $T_{nml}^q$  O'Tning har birida  $n_0$  qiymat  $T_{nml}^q$  O'Tdagi  $x_i$  belgilar soni  $n$  qiymatdan tanlab olinishi inobatga olinsa, u holda  $l$  ta  $T_{nml}^q$  O'Tda  $K_q$  sinf timsollarini  $K_p$  sinf timsollaridan xatoli ajratishi mumkin bo'lgan barcha HQQlar soni  $N$  qiymatdan oshmaydi, ya'ni:

$$N \leq l 2^{n_0} C_n^{n_0}. \quad (16)$$

(16) munosabatdan  $l$  ta  $T_{nml}^q$  O'Tning har birida  $K_q$  sinf timsollarini  $K_p$  sinf timsollaridan xatosiz ajratishda belgilangan  $\varepsilon$  va  $\eta$  qiymatlarni qanoatlan-

tiruvchi BF o'lchami  $n_0$  qiymatni topish talab etiladi.  $n_0$  qiymatni (16) munosabatni logarifmlash orqali topish mumkin:

$$\ln N \leq \ln l + \ln 2^{n_0} + \ln C_n^{n_0}. \quad (17)$$

$n_0 \geq 1$ ,  $n \geq 2$  va  $n > n_0$  bo'lganda (17) munosabatdagi  $C_n^{n_0}$  qiymatni quyidagicha baholash mumkin:

$$C_n^{n_0} \leq n^{n_0}. \quad (18)$$

(18) munosabatni hisobga olib, (17) munosabatdan quyidagi hosil bo'ladi:

$$\begin{aligned} \ln N &\leq \ln l + \ln 2^{n_0} + \ln n^{n_0} = \\ &= n_0 (\ln 2 + \ln n) + \ln l. \end{aligned} \quad (19)$$

Hosil qilingan  $\ln N$  ifodani (14) formulaning chap tomoniga qo'yib, BF o'lchamining yuqori chekli qiymati  $n_0$  quyidagicha aniqlanadi:

$$n_0 = \frac{(\nu + \varepsilon^2) 2m + \ln \eta - \ln l}{\ln 2 + \ln n}. \quad (20)$$

Demak, dastlabki  $T_{nml}$  O'Tdagi har bir  $K_q (q = \overline{1, l})$  sinf timsollarining  $x_i (i = \overline{1, n})$  belgilari uchun  $\delta_i^q (i = \overline{1, n})$  bo'sag'a qiymatlari (7), (8) va (13) formulalardan biri yordamida aniqlanganda va ulardan foydalanib (9) va (10) qoidalardan biriga asosan  $T_{nml}$  O'T  $x_i (i = \overline{1, n})$  belgilaridan  $l$  ta binarlashtirilgan  $T_{nml}^q (q = \overline{1, l})$  O'Tlar hosil qilinganda, ushbu  $T_{nml}^q (q = \overline{1, l})$  O'Tlarning har birida  $K_q$  sinfni  $K_p$  sinfdan xatoli ajratishni  $n_0 = f(\nu, \varepsilon, \eta, n, m, l)$  bog'liqlik asosida (20) formulada aniqlanadigan  $n_0$  o'lchamli BFda amalga oshirish talab qilinadi.

(20) formulada  $\eta$  qiymati tayinlanganda hamda  $\nu$ ,  $\varepsilon$  va  $l$  qiymatlarni

oshishi bilan  $n_0$  qiymatini oshishida dastlabki  $T_{mnl}$  O‘T uchun talab qilinadigan timsollar soni  $m$  va belgilar soni  $n$  qiymatlari orasidagi munosabat dinamikasi 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval.**  $n_0 = f(v, \varepsilon, \eta, n, m, l)$  bog‘liqlik dinamikasi.

$v$	0,01	0,02	0,03	0,04	0,05	0,06	0,07	0,08	0,09	0,1
$\varepsilon$	0,01	0,02	0,03	0,04	0,05	0,06	0,07	0,08	0,09	0,1
$\eta$	0,99	0,98	0,97	0,96	0,95	0,94	0,93	0,92	0,91	0,90
$l$	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
$m$	52	79	96	108	117	124	129	134	138	141
$n$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$n_0$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

1-jadval tahlilidan ko‘rinadiki,  $v$  va  $\varepsilon$  parametrlarning  $[0,1]$  oraliqda mos ravishda o‘zgarishi ketma-ket 0,01 qiymatda va  $l$  parametrning 1 qiymatda oshishi,  $\eta$  parametrning  $[0,1]$  oraliqda 0,01 qiymatda kamayishi jarayonida  $n_0$  ning ketma-ket 1 qiymatda oshishi uchun belgilar soni  $n$  ning 1 qiymatda

Umumiy holda (20) formulada aniqlanadigan  $n_0$  qiymatning oshishida  $v, \varepsilon, \eta, n, m, l$  parametrlar qiymatlari orasidagi munosabat dinamikasini 1-jadvalda keltirish mumkin.

oshishiga mos ravishda talab qilinadigan timsollar soni  $m$  ham oshib boradi.

Xususiyl holda, jumladan  $v, \varepsilon$  va  $\eta$  parametrlar taynlanganda, (20) formulada aniqlanadigan  $n_0$  qiymatning oshishida  $n, m, l$  parametrlar qiymatlari orasidagi munosabat dinamikasini 2-jadvalda keltirish mumkin.

**2-jadval.**  $v, \varepsilon$  va  $\eta$  parametrlar taynlanganda  $n_0 = f(v, \varepsilon, \eta, n, m, l)$  bog‘liqlik dinamikasi.

$v = 0,01; \varepsilon = 0,01; \eta = 0,99;$										
$l$	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
$m$	52	158	292	442	605	775	955	1140	1333	1530
$n$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$n_0$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$v = 0,02; \varepsilon = 0,02; \eta = 0,99;$										
$l$	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
$m$	26	79	145	219	299	383	472	564	659	757
$n$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$n_0$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$v = 0,03; \varepsilon = 0,03; \eta = 0,99;$										
$l$	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
$m$	17	52	96	144	197	253	312	373	435	500
$n$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$n_0$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

2-jadval tahlilidan ko‘rinadiki,  $\eta$  parametr tayinlanganda,  $\nu$  va  $\varepsilon$  parametrlarning  $[0,1]$  oraliqdagi qiymatlari mos ravishda ketma-ket 0,01 qiymatda hamda  $l$  parametrning 1 qiymatda oshib borilishi jarayonida  $n_0$  ning ketma-ket 1 qiymatda oshishi uchun talab qilinadigan timsollar soni  $m$  va belgilar soni  $n$  orasidagi munosabat qariyb 1,5 va 2 baravarga qisqaradi.

$\nu, \varepsilon, \eta, n, l$  parametrlar qiymatlari ma’lum bo‘lganda va  $n_0$  ning qiymatini ketma-ket 1 qiymatda oshirish bilan (20) formuladan ushbu parametrlar qiymat-

larini qanoatlantiruvchi timsollar sonini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$m = \frac{n_0(\ln 2 + \ln n) + \ln l - \ln \eta}{2(\nu + \varepsilon^2)}. \quad (21)$$

(21) formulada  $\nu, \varepsilon, \eta, n$  parametrlar qiymatlari tayinlanganda hamda  $l$  va  $n_0$  parametrlarning qiymatlari ketma-ket 1 qiymatda oshishi bilan dastlabki  $T_{nml}$  O‘T uchun talab qilinadigan timsollar soni  $m$  ning o‘garish dinamikasi 3-5-jadvallarda keltirilgan.

**3-jadval.**  $\nu = 0,01$ ;  $\varepsilon = 0,01$ ;  $\eta = 0,99$ ;  $n = 30$  qiymatlarda  $m$  qiymatning o‘zgarish dinamikasi.

$\nu = 0,01$ ; $\varepsilon = 0,01$ ; $\eta = 0,99$ ; $n = 30$ .											
	$n_0$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$l = 2$	$m$	238	440	643	846	1048	1251	1454	1656	1859	2062
$l = 3$	$m$	258	460	663	866	1068	1271	1474	1676	1879	2082
$l = 4$	$m$	272	475	677	880	1083	1285	1488	1691	1893	2096
$l = 5$	$m$	283	486	688	891	1094	1296	1499	1702	1904	2107

**4-jadval.**  $\nu = 0,02$ ;  $\varepsilon = 0,02$ ;  $\eta = 0,99$ ;  $n = 30$  qiymatlarda  $m$  qiymatning o‘zgarish dinamikasi.

$\nu = 0,02$ ; $\varepsilon = 0,02$ ; $\eta = 0,99$ ; $n = 30$ .											
	$n_0$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$l = 2$	$m$	118	218	318	419	519	619	720	820	920	1021
$l = 3$	$m$	128	228	328	429	529	629	730	830	930	1031
$l = 4$	$m$	135	235	335	436	536	636	737	837	937	1038
$l = 5$	$m$	140	240	341	441	541	642	742	843	943	1043

**5-jadval.**  $\nu = 0,03$ ;  $\varepsilon = 0,03$ ;  $\eta = 0,99$ ;  $n = 30$  qiymatlarda  $m$  qiymatning o‘zgarish dinamikasi.

$\nu = 0,03$ ; $\varepsilon = 0,03$ ; $\eta = 0,99$ ; $n = 30$ .											
	$n_0$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$l = 2$	$m$	78	144	210	276	343	409	475	541	608	674
$l = 3$	$m$	84	150	217	283	349	415	482	548	614	680
$l = 4$	$m$	89	155	221	288	354	420	486	553	619	685
$l = 5$	$m$	92	159	225	291	357	424	490	556	622	689

**6-jadval.**  $\nu = 0,04$ ;  $\varepsilon = 0,04$ ;  $\eta = 0,99$ ;  $n = 30$  qiymatlarda  $m$  qiymatning o'zgarish dinamikasi.

$\nu = 0,04$ ; $\varepsilon = 0,04$ ; $\eta = 0,99$ ; $n = 30$ .											
	$n_0$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$l = 2$	$m$	58	107	156	205	255	304	353	402	451	501
$l = 3$	$m$	63	112	161	210	259	309	358	407	456	63
$l = 4$	$m$	66	115	164	214	263	312	361	410	460	66
$l = 5$	$m$	69	118	167	216	266	315	364	413	462	512

3-6-jadvallar tahlilidan ko'rinadiki, birinchidan  $\nu$ ,  $\varepsilon$ ,  $\eta$ ,  $n$  parametrlar tayinlanganda,  $n_0$  va  $l$  parametrlarning qiymatlari mos ravishda ketma-ket 1 qiymatda oshib borilishi jarayonida  $T_{nml}$  O'T uchun talab qilinadigan timsollar soni  $m$  oshib boradi, ikkinchidan  $\eta$ ,  $n$  parametrlar tayinlanganda,  $\nu$ ,  $\varepsilon$  parametrlarning qiymatlari mos ravishda ketma-ket 1 qiymatda oshib borilishi jarayonida  $T_{nml}$  O'T uchun talab qilinadigan timsollar soni  $m$  kamayib boradi.

(20) formulada aniqlangan  $n_0$  o'lchamli BFda binarlashtirilgan  $l$  ta  $T_{nml}^q$  O'Tning har birida  $K_q$  sinfni  $K_p$  sinfdan xatoli ajratish masalasini yechishda faqat (12) va (13) munosabatlar asosida aniqlangan  $K_q$  sinfga xos 2-tipli  $x_{qi}^{(2)}$  va 3-tipli  $x_{qi}^{(3)}$  tipli ABlardan foydalaniladi, (11) munosabat asosida aniqlangan 1-tipli  $x_{qi}^{(1)}$  ABlar esa qaralmaydi. Chunki (11) munosabatni qanoatlantiruvchi 1-tipli har bir  $x_{qi}^{(1)} \in V_q^{(1)}$  AB  $K_q$  sinfni  $K_p$  sinfdan xatosiz ajratadi. Bunday belgilar sinflarni xatoli ajratishda mavjud bo'lmaydi. 2-tipli  $x_{qi}^{(2)}$  hamda 3-tipli  $x_{qi}^{(3)}$  tipli ABlarning har biri  $K_q$  sinfni  $K_p$  sinfdan ajratishda xatolikga yo'l qo'yadi. Shuning uchun 2-tipli  $x_{qi}^{(2)}$  hamda 3-tipli

$x_{qi}^{(3)}$  tipli ABlar yordamida  $K_q$  sinfni  $K_p$  sinfdan xatoli ajratishda sodir etiladigan  $\nu$  xatolik chastotasi va ushbu ABlardan hosil qilinadigan HQQni yangi TTOdagi belgilangan xatolik ehtimoli  $(\nu + \varepsilon^2)$  va uning ishonchliligi  $\eta$  kabi qiymatlarni qanoatlantirishi inobatga olinadi.

Aytaylik  $n_0$  ning qiymati (20) formuladan foydalanib hisoblangan bo'lsin. U holda  $l$  ta  $T_{nml}^q$  O'Tning har birida  $n_0$  o'lchamli BFga mos hosil qilinadigan HQQ  $X_u \in K_q (u = \overline{1, m_q})$  timsollarni  $X_u \in K_p (u = \overline{1, m_p})$  timsollardan belgilangan  $\nu$  xatolik bilan ajratishi va yangi timsollarni tanishda  $(\nu + \varepsilon^2)$  va  $\eta$  qiymatlarni qanoatlantirishi uchun, ushbu BFga mos tanlab olinadigan har bir  $k (k = \overline{2, 3})$ -tipli  $x_{qi}^{(k)}$  belgi zarur ajratish kuchi(AK)ga ega bo'lishi talab etiladi.

**Sinflarni xatoli ajratishda ABlar AKni hisoblash.** Faraz qilaylik,  $l$  ta  $T_{nml}^q$  O'Tning har birida (12) va (13) munosabatlarni qanoatlantiruvchi  $K_q$  sinfga xos  $k (k = \overline{2, 3})$ -tipli  $V_q^{(k)} = x_{q1}^{(k)}, x_{q2}^{(k)}, \dots, x_{qm_k}^{(k)} (n_k \leq n)$  ABF aniqlangan bo'lsin. U holda [1, 11] ishlardagi kabi  $k$ -tipli har bir  $x_{qi}^{(k)} \in V_q^{(k)}$  ABning AK quyidagicha hisoblanadi:

$$f(x_{qi}^{(k)}) = \frac{|g_i^{(k)}|}{|m|}, \quad (22)$$

